

fikasi asosidagi o'zbek yozuvlaridan samarali foydalan-gan. U aksar hollarda ko'ngildan toshib kelgan toshqin satrlarni ilk savodi chiqqan arab alifbosida bitgan, so'ngra she'rlaridagi tuzatishlarni kirill va lotin alifbo-larida amalga oshirganligini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, Shayxzoda «Navoiyda lirik qahramon xarakteri va uning ochilish priyomlari haqida» nom-zodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Mazkur ilmiy ishni yozish davomida u astoydil ilmiy izlanish olib borganini, ko'plab manbalar yiqqanini arxivda saqla-nayotgan materiallardan ko'rsa bo'ladi. Shayxzo-daning navoiyshunoslikka oid qo'lyozmalarini ham quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

- navoiyshunoslikka oid ilk tadqiqotlari;
- «Navoiyda lirik qahramon xarakteri va uning ochilish priyomlari haqida» nomzodlik dissertatsiyasi qo'lyozmalari va unga oid boshqa manbalar;
- navoiyshunoslikka oid qardosh va chet tillaridagi manbalar;
- Navoiyning tavallud sanalariga atab yozilgan nutqlar, ma'ruzalar, fikrlar;
- «Navoiy lirikasining g'oyaviy va badiiy-poetik xususiyatlari» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi va unga oid boshqa manbalar;

- Shayxzodaning tadqiqot daftarlari, konspektlari.

Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan 1941-yil "O'zadabiynashr" nashriyatida nashr etilgan "Genial shoir" kitobi Shayxzodaning ilmiy faoliyatida katta voqea bo'lib, she'riyat orqali ancha tanilgan ijod-korning ilk katta tadqiqotlaridan biri edi. Mazkur kitob mutaxassislar tomonidan yuqori baholandi. 1948-yilda esa «G'aroyib us-sig'ar» devoni bo'yicha «Navoiyda lirik qahramon xarakteri va uning ochilish priyomlari haqida» nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Shayxzodaning bu tadqiqotni yozish uchun qay dara-jada ilmiy izlanishlar olib borganini to'g'risida uning o'zi yiqqan va bugun arxivda saqlanayotgan 100 dan ortiq hujjat guvohlikka o'tadi. Bu dissertatsiya muallif tuzatishlari bilan birga 85 varaqdan iborat bo'lib, "482" tartib raqami ostida saqlanadi. Shayxzoda 1940-yildan boshlab Navoiy ijodi bo'yicha nimalarni tadqiq qilib, nima yangiliklarni izlab topgan bo'lsa, barchasini qator daftarlarga yozib qoldirgan, uning tadqiqot daftarlari, bloknot, konspektlari (tartib raqami 480, 481, 484, 485) saqlanib qolgan. Unda asosan arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuvi va rus yozuvlaridan foydalangan.

YOSHLAR KUNDALIK HAYOTINING VIRTUALLASHUV SABABLARI VA OMILLARI (SOTSIOLOGIK TAHLIL)



SODIRJONOV Muxriddin Maxammadaminovich, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Rhd)

Annotatsiy. Axborot jamiyatida yoshlar qatlamidagi ijtimoiy muammolarning dolzarbligi, insonning cheksiz telekommunikatsion simulyatsiyalar dunyosida ma'naviy ko'rsatma va barqarorlikni izlashi bilan izohlanadi. Yoshlarning axborot inqilobi ta'siri ostida an'anaviy madaniyat elementlari modernizatsiya qilinmoqda, asta-sekin dunyo bo'ylab internetga kirib borib, texnologik yangiliklarga sezilarli moslashuvchanlik salohiyatlarini namoyish etmoqda. Ushbu maqolada yoshlar hayotida virtual makonning ahamiyati, sotsiologik tadqiqotlarda virtualashuv tavsifining yangi tendensiyalari ko'rsatilib, zamonaviy yoshlar ijtimoiy munosabatlarining qiyosiy tahlili berilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, axborot, madaniyat, ta'lim, virtuallik, virtual hayot, virtual makon, ijtimoiy aloqa, ijtimoiy tarmoq.

Abstract. The relevance of social problems among the youth in the information society is explained by the human search for spiritual guidance and stability in the world of endless telecommunication

simulations. Under the influence of the information revolution of young people, elements of traditional culture are being modernized, gradually entering the Internet around the world, showing significant adaptability potential to technological innovations. This article shows the importance of virtual space in the life of young people, new trends in the description of virtualization in sociological research, and provides a comparative analysis of social relations of modern young people.

Key words: *globalization, information, culture, education, virtuality, virtual life, virtual space, social communication, social network.*

Mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha soha-lariga innovatsion texnologiyalarni qo'llash aso-sida zamonaviy ishlab chiqarishga zamin yaratish, boshqaruvda axborot kommunikatsiya texnologiya-larining me'yoriy-huquqiy poydevorini mustahkamlash, ta'limning barcha bosqichlarida elektron madaniyat-ni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlar yoshlarning axborot olish, saqlash, qayta ishlash va yuborishga doir axborot madaniyatining alohida unsuri sifatida elektron munosabatlarini fa-ollashtirmoqda. "Globallashuv davrida jahonning ko'pgina taraqqiy etgan davlatlari "axborot jamiyati", "bilimlar iqtisodiyoti", "raqamli iqtisodiyot" yo'li-ni tanlaganiga guvohmiz. Zamonaviy dunyoda inson kapitali, intellektual salohiyat, innovatsion g'oyalar, yuqori texnologiyalar jadal va barqaror taraqqiyotning fundamental asosini tashkil qilmoqda"[1; 307].

Davlat yoshlar manfaatlarini ta'minlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, katta maqsadlar sari safarbar etish uchun mamlakatdagi barcha sektorlar-ni jalb etmoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida kechayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning integratsiyalashuvi, jahonning bir bur-chagida paydo bo'lgan g'oyalar, yangiliklar hamda ijtimoiy qarashlarning boshqa hududlarga tezkorlik bilan yoyilishini xalqaro globallashuvning ajralmas fenomenini sifatida e'tirof etish mumkin. Ijtimoiy ja-rayonlarda harakatlantiruvchi kuch sifatida yoshlar qatlamining o'rni va roli katta.

Yirik xalqaro korxonalarining markazlari bilan ham-korlikda raqamlashtirish yo'nalishidagi faoliyatda inson kapitalini rivojlantirish, shu jumladan. IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish, IT-korxonalar uchun institu-sional sharoitlarni yaxshilash va ma'muriy to'siqlarni kamaytirishga alohida diqqat qilish zarur[2; 194]. Ho-zirgi global butunjahon tendensiyalarini hisobga olib, O'zbekiston uchun AKTdan jamiyatning barcha soha-larida unumli foydalanish, shuningdek, raqamli tex-nologiyalarning umumiy rivoji innovatsiyalar hamda jahon iqtisodiyotiga jadal sur'atlarda kirishi va integrat-siyalashuvining harakatlantiruvchi kuchiga aylantiradi. Buning uchun Respublikada tezkorlik bilan zarur cho-

ra-tadbirlar amalga oshirilmoqda, lekin dastlabki ilmiy asos va ilmiy tadqiqotlarsiz ushbu jarayonlarda yuqori samaradorlikka erishib bo'lmaydi.

Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiya-lari ijtimoiy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, uning har bir foydalanuvchisi tobora "virtual olam"ning "virtual odam"iga aylana bormoqda. O'z farazlarida boshqalar bilan bir qatorda ommaviy kommunikatsiya vositalaridagi inqilob natijalariga tayanayotgan post-modernizm "virtual" ta'rifi ni olgan yoshlar o'zgacha zamon va ideosferaning yangicha "mezonini" nazarda tutadi. "Vituallik" tushunchasi hozirgi vaqtda eng yangi multimediali audiovizual va kompyuter texnologiyalari imkoniyatlariga taqqoslanadi, bular yordamida mutlaq ishonchli sifatida idrok etiladigan va boshdan kechiri-ladigan xayollarni (illyuziya) yaratish mumkin bo'ladi.

Albatta, ushbu fikrni yanada to'ldirish va uning salbiy hamda ijobiy tomonlarini tahlil qilish mumkin. Hozirgi o'zbek jamiyatida ko'pgina yoshlarning za-monaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularni o'zlashtirish salohiyati yuqori baholanadi. Shu bilan birga, axborotni sintez qilish hamda qabul qilish-da axloqiy va milliy madaniyatni tark etish, ijtimoiy yolg'izlikka kelib qolish yoki aksincha, turli noras-miy jamoalar, diniy oqimlar, turli "zamonaviy mada-niy" oqimlar, onlayn o'yinlar va boshqalar ta'siriga tushib qolish oqibatida moddiy va ma'naviy zararga uchrayotgan ba'zi holatlarda suitsid holatlari bilan tugayotgan voqealarni alohida ta'kidladilar. Yangi axborot texnologiyalari davridagi etnik hodisalarni ijtimoiy-madaniy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlardan alohida ko'rib chiqmaslik kerak. Odamlar va etnik guruhlar ko'plab axborot hamda ijtimoiy aloqalarda qatnashadilar. Milliy internet tarmog'ining roli etnik ommaviy axborot vositalari faoliyatidagi bo'shliqlarni to'ldirish, to'g'ridan-to'g'ri etnik aloqalardagi nuq-sonlarni bartaraf etish orqali aholining an'anaviy mil-liy mentalitetini shakllantirishdan iborat.

Global kompyuter tarmoqlari va telekommunikat-siya texnologiyalari joriy etilgan zamonaviy jamiyatda axborot ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim man-bai va omiliga aylanmoqda. Bizning ko'z o'ngimizda

dunyo real voqeadan axborot-virtualga aylanmoqda; afsuski, virtual haqiqat mavjudlikning asosiy shakllaridan biri sifatida tan olinmoqda. Shu munosabat bilan, axborot resurslarini saqlash va tarjima qilish, aloqa tarmoqlarining murakkablashuvi va chuqurlashishi, voqelikni virtuallashtirishning oqibatlarini, axborot texnologiyalari ta'siri natijasida ma'naviy mezonlarga bo'lgan e'tiborning pasayishi bilan bog'liq muammolar ilmiy va falsafiy munozaralar uchun dolzarb bo'lib qolmoqda.

Sotsiologik nazariyalar tizimida o'ziga xos ahamiyat kasb etadigan "ijtimoiy-madaniy" yondashuvning asoschisi P. Sorokin shunday ta'kidlaydi: "Jamiyat va madaniyat – o'ziga xos shunday birlikki, unda sotsium o'zining sotsiomadaniy aloqa va jarayonlarga kirishishi bilan individumni tashkil etadi". O'z navbatida madaniyat sotsiumdagi ma'nolar, qadriyatlar va me'yorlar majmuini obyektivlashtirib, kishilarni etnik hamda diniy jihatdan ijtimoiylashuvga tayyorlab beradi. Madaniyat shu tariqa inson ijtimoiy xulqining asosiy, ammo faqat uning o'zigagina xos bo'lgan xususiy (shaxsiy) determinanti (ilgari suruvchi) sifatida jamiyatga etnomadaniy omil sifatida uyg'unlashadi[3; 296].

Taniqli iqtisodchi olim A.N.Ijyev[4] o'zining ilmiy tadqiqotida shunday ta'kidlaydi: "etnik o'ziga xoslikning eng muhim funksional yadrosi – bu etnosning deyarli barcha ekzistensial ongli sohasini qamrab oluvchi va doimiy ravishda (ommaviy axborot vositalari yordamida) axborot va kommunikatsion oziqlanishini talab qiladigan, birinchi navbatda, etnik-madaniy mulk shaxsning hayotiy ta'minotini kafolatlaydigan asosiy himoya vositasi bo'lgan ma'naviy qadriyatdir."

Kundalik hayotimizga "zamonaviy odam" degan so'z ishlatilishi tabiiy holatga aylandi. Bunga A.Y. Hots[5] o'zining tadqiqotida quyidagicha tarif beradi: "Axborot jamiyatining asosiy afzalliklari bilan bir qatorda, u insonlarning kundalik hayotini yangi madaniyatlar bilan boyitadi, an'anaviy turmush tarzidan voz kechadi, turli elitar madaniyatlarni o'zlashtirib, o'zining standartini yaratadi"

"Virtual jamiyat" nazariyasining muallifi A. Byulning fikriga ko'ra virtual reallik texnologiyalari rivojlanishi bilan kompyuter hisoblash mashinasidan "ko'zgulardagi" olamlarni yaratish bo'yicha universal mashinaga aylandi. Jamiyatdagi har bir tizimcha "parallel" olamlar tomonidan shakllangan bo'lib, bularda virtual o'xshashliklar: Internet tarmog'ida iqtisodiy interaksional va siyosiy harakatlarning amalga oshirilishi, kompyuterli o'yinlar personajlari bilan muloqot va h.k.lar yuz bermoqda. Kompyuter yordamida o'ziga xos olam, jamiyat yaratishga ta'sir

ko'rsatish jarayonini A.Byul virtuallashuv (virtual olam) deb ataydi[6].

Berilgan fikrlardan quyidagicha xulosa qilish mumkin: virtual voqelikka kirib ketish insonlar o'rtasida real voqelik va haqiqatdan uzoqlashishga olib kelmoqda. Natijada bu jarayon har bir etnik guruh va jamoada o'z aksini topib, insonlarning ijtimoiylashuv jarayonlari virtual maydonga ko'chib o'tdi hamda o'zining turli ijobiy va salbiy xususiyatlari bilan namoyon bo'lmoqda.

Virtual voqelikni tadqiqotchi A.Gavrilov[7] quyidagicha tasniflaydi:

borliqning asosiy xususiyati real, aktual, lekin substansional emas (V.V.Xoruj);

mavjud, barqaror ijtimoiy dunyoga mavjud muqobil kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan vositachilik qilingan haqiqat (A. Bul, A.I.Voronov, M. Vaynshteyn, A. Kroker);

individning o'ziga xos mantiq nuqtai nazaridan yaratgan subyektiv reallik (I.G. Korsuntsev, P. Tillix); shaxsning psixologik haqiqatining bir qismi (N.A. Nosov, Babenko);

ijtimoiylikning alohida shakli, jamiyat tomonidan muloqotning virtual shakllarini ishlab chiqish natijasi (M. Castells, N. Luhmann, M. Paetau, Y.Taratuta);

jamiyatning qadriyat va institusional elementlarini simulakralar bilan almashtirish asosida yaratilgan voqelik (J. Bodriyar, D. V. Ivanov).

Virtual obrazlar bola ongigagina emas, uning ongi osti olamiga ham ta'sir etadi, natijada anglanmagan obrazlar kodlashadi. Yosh avlodning eng kichik vakillari ham bugun "podpischik", "layk", "spam" nimaligini juda yaxshi biladi. Ayonki, texnik taraqqiyotni to'xtatish mumkin emas: biz buni xohlaymizmi-yo'qmi, kompyuter texnologiyalari hayotimizda mustahkam o'ringa ega, kompyuter savodxonligi ko'rsatkichi esa ko'p hollarda insonning yuqori saviyasini belgilab beruvchi omilga aylanib bermoqda.

Yana shuni qayd etish joizki, so'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda ayrim yoshlarning xalq orasida obro'-e'tibor qozongan ahli ilm, imom, ulamolarni masxaralab, obro'sizlantirishga qaratilgan lavhalari orqali ayanchli illatlarni targ'ib etayotgani har bir musulmon kishining qalbini larzaga keltirdi. Kompyuter o'yinlariga tobe'ligi, axloq normalaridan tobora begonalashishi, real emas, virtual olam ta'siriga tushib qolishi epidemiyaga tusini ham olmoqda, millat, xalq va madaniyat taqdirini o'ylovchi kishilarni tashvishga solmoqda.

Ijtimoiy tarmoq orqali fikr bildirish va buning ortidan maqtov ("layk")larni qo'lga kiritishga urinish

bugungi yoshlarni tobora o'z domiga tortmoqda. Natijada virtual tahdid nihoyatda ommalashib bormoqda. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ldiki, hozirda maktab yoshidagi bolalar internetdan tobora erta foydalanishga kirishmoqda. Lekin, mutaxassislarining fikricha, yoshi o'nga yetmagan bola odatda mustaqil ravishda internetdan foydalanish uchun zarur bo'lgan tanqidiy, tahliliy fikrlash va shu asosda ma'lumotlarni farqlash, ularni ajrata bilish, boshqacha aytganda, "filtrlay" olish qobiliyatiga ega emas. Shunday ekan, ongi va dunyoqarashi endigina shakllanayotgan yosh avlodning ma'naviy olami daxlsizligini asrash oldimizda turgan eng muhim masalalardan biridir.

Virtual hayot kundalik turmushimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Insonning o'z qobig'idan chiqishi dunyoni yolg'on va soxta nigohlar bilan ko'rishiga sabab bo'lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlar odob-axloq chegarasini buzib o'tmoqda. Bu o'zgacha olam insonni ishdan chalg'itayotgani bir masala bo'lsa, soxta muhabbat va do'stlik munosabatlari ko'plab oilalarning buzilishiga olib kelayotgani achinarlidir. Bu tuzoq nafaqat yoshlarni, balki hali-hanuz o'zini anglamagan katta va o'rta yoshlilar hayotiga ham chuqur kirib kelmoqda. Juda ko'p odamlar virtual muloqot, deb haqiqiy voqeelikdan voz kechmoqda.

Yoshlarimizning internet manbalaridan foydalanish holatiga nazar soladigan bo'lsak, ularning aksariyati "fasebook", "telegram", "snapchat", "tik-tok" kabi xorijiy ijtimoiy tarmoqlarning doimiy foydalanuvchilari ekanligi kuzatiladi. Milliy domendagi saytlarda ro'yxatdan o'tganlarning barchasini jamlaganda ham ularga yetmaydi. Demak, bu holat milliy saytlarimizni yoshlar uchun jozibador, mazmunli, saviyali, qiziqarli qilib yaratish masalasiga jiddiy e'tibor qilishga undaydi.

Har narsaning yaxshi va yomon tarafi bo'lganidek, so'nggi yillarda internetning ham jiddiy xatarlari yuzaga chiqmoqda. Eng achinarlisi, buzg'unchi, yot oqimlar ijtimoiy tarmoqlardan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanmoqdalar. Bu esa yoshlarni o'z domiga tortayotgani, ayrim saytlarda behayolik, axloqsizlik kabi ayanchli illatlar targ'ib etilayotgani, shuningdek, turli fitnalar, jamiyatni beqarorlashtiruvchi yolg'on ma'lumotlar berilayotgani afsuslanarlidir.

Ijtimoiy tarmoqlar, virtual olam odamlarning ta'siri, obro'-e'tiboriga baho berish, o'zimizni ko'rsatib qo'yishning yangi, o'ta zamonaviy ko'rinishiga aylanib qoldi. Bu jihatlar oilalarning barbod bo'lishi, samimiyatning yo'qolishi, balandparvoz so'zlarga ishonish, o'zligini his etmaslik, insoniy fazilatlarini qadrlamaslik kabi illatlarni boshlab kelayotgandek.

Tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda yoshlarning istak va xohishlarini inobatga olish, unda har qanday zo'rlik va majburlovlardan voz kechish, yoshlarning asosiy qiziqishi va faoliyat doirasini tashkil etayotgan turli xil sohalarni tarbiya jarayonida to'liq qamrab olish, bunda, axborotli texnologiyalar (ommaviy axborot vositalari – gazeta, jurnal, radio, televideniye va internet) xizmatidan foydalanishni keng yo'lga qo'yish, milliy qadriyatlarimizni o'zida aks ettiradigan internet saytlari, multimedia va roliklarni ko'paytirishdan iborat.

Ta'lim muassasalarida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilishi bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- ta'lim bosqichlaridagi ma'naviy tarbiya soatlarida "Uyali telefon va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati" mavzuida davra suhbatlari o'tkazish;
- aholi va yoshlarning kommunikativ va axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlar olib borish;
- ijtimoiy tarmoqlar vositasida talaba-yoshlar o'rtasida ta'limiy dasturlar, kitobxonlikni targ'ib qiluvchi saytlar, milliy qadriyatlarni tarannum etuvchi dasturiy o'yinlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalarni kashf etish va ularni amaliyotga joriy etish;
- yoshlarning ilmiy va intellektual faoliyati, ularning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtiro-lari va ratsionalizatorligining yakuniy natijalarini ijtimoiy tarmoqlarda maqsadli targ'ib etish;
- turli ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan yoshlarni vatanparvarlik ruhida yangi guruhlariga birlashtirish orqali ularni innovatsion ishlanmalarga jalb etish;
- milliy Internet tarmoqlarida yoshlarbop materiallarni ko'paytirish.

Endilikda virtual makondan birdaniga chiqarib bo'lmaydi va bu salbiy holat ham emas, faqatgina maqsadsiz, tafakkur rivojlanishiga foyda keltirmaydigan "saviyasiz videolar, o'yinlar" o'rniga quyidagi axborot mahsulotlari bilan ularga kerakli ma'lumotlarni berib borish lozimdir:

- vebinarlar;
- treninglar;
- onlayn o'quv kurslari;
- elektron kitoblar.

Oliy ta'lim talabalari uchun dunyoning eng yetakchi universitetlarida o'qiydigan chet ellik talabalar bilan "tengdosh-tengdosh" tamoyili asosida onlayn o'quv-ilmiy almashinuv dasturlari orqali virtual suhbatlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Tashkil etilgan vebinarlarda talabalar ijtimoiy hayoti, xorij ta'lim tizimidagi o'quv jarayonla-

ri, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, talabalar bo‘sh vaqtlarini mazmunli uyushtirishdagi dasturlar, kitobxonlik bo‘yicha suhbatlar, turli yangilik va innovatsiyalar haqida axborot almashishlar foydadan xoli bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 307. (456)
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, – 2021. – Б.194.
3. Сопокин П. Человек. Цивилизация. Общество. – Москва: Политиздат, 1992 – С. 296.
4. Ижаев А.Н. Информационно-политическая и этническая идентичность в пространстве массовой коммуникации: автореф. дис. ... канд. полит. наук. Москва, 2007 // Библиотека диссертаций dslib.net.
5. Хотс А.Й. Информационная революция

и этнические аспекты культуры современного общества: автореф. дис. ... канд. филос. наук. Ставрополь, 2001

6. Бюл А. Виртуальное общество 21 века: социальные изменения в эпоху цифровых технологий. Висбаден: Westdeutscher Verlag, 2000.

7. Гаврилов, А. А. Основные подходы к определению категории «виртуальная реальность» в современном философском дискурсе / А. А. Гаврилов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2012. — № 9 (44). — С. 162-166. — УРЛ: <https://moluch.ru/archive/44/5330/> (дата обращения: 08.01.2022).

8. Содиржонов М. Инсон капитали ривожии шахсингонги, билими, ахлоқ-одоби, дунёқарашига боғлиқ// Янги Ўзбекистон. Ижтимоий-сиёсий газета 2022 йил 10 февраль, № 30 (552), (<https://yuz.uz/news/inson-kapitali-rivoji-shaxsning-ongi-bilimiahloq-odobi-dunyoqarashiga-bogliq>)

AMIR TEMUR DAVRIGA BAG'ISHLANGAN NASHRLAR BIBLIOGRAFIYASI



To'ychi BAYTURAEV,

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Kutubxona fondlari va bibliografiyashunoslik"
kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

Annotatsiya. Maqolada Temuriylar davriga bag'ishlab nashr qilingan "Amir Temur. Bibliografiya. Birinchi kitob" nomli ilmiy-yordamchi ko'rsatkichning adabiyotlarni qidirish, tanlash, joylashtirish masalalari o'rganilgan. Bu bibliografiyada Amir Temur davlati tarixiga oid nashr qilingan adabiyotlar bibliografiyasining to'liq kiritilishiga bo'lgan harakat tahlil qilingan. Qo'llanmadagi nashr turlari va ularning foydalanuvchilarga xizmat qilishiga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: davr, shaxs, nashr, bibliografiya, kitobxon.

Annotation. The article studies the bibliographic index "Amir Temur. Bibliography. The first book" dedicated to the period of the Temurids. The article also studied the issues of literature search, selection, placement of literature in this scientific auxiliary index. The author of the article determines that the compilers have set a noble goal, this will achieve the completeness of the inclusion of a publication on this topic

Key words: period, person, publisher, bibliography, reader.

1. Amir Temur – buyuk shaxs, mag'lublik ko'rmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, talantli me'mor, notiq, shu bilan birga el-yurtini sevgan va uni mashhuri jahon qilgan xalqimiz ulug' farzandi. Amir Temur va uning avlodlari tarixiga oid nashrlar juda ko'p, ular turli tillarda va turli xillarda, ya'ni maqsadlarda nashr qilingan. Kitobxonlarning bobimiz Temur shaxsiga qiziqishining ortishi bibliografiyalarning nomi, sonlarining doimiy o'sishiga olib kelmoqda [1].

2. Amir Temur davlati tarixiga oid ko'plab tadqiqotlarning mavjudligi alohida bibliografik nashr yaratish-